



UO'K: 91:631.1(575.141)

Shodiyor BOBOYEV,
Samarqand davlat universiteti assistenti, PhD
E-mail: sh.x.boboyev@gmail.com. <https://orcid.org/0009-0008-9683-4398>

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD J.Namozov taqrizi asosida

SAMARQAND VILOYATIDA AGROSANOAT KLASTERLARI FAOLIYATINI SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR ORQALI TAHLIL QILISH

Аннотация

Ushbu maqolada Samarqand viloyatidagi agrosanoat klasterlarining faoliyat turlarini sotsiologik tadqiqotlar orqali baholash va tahlil qilish asosida ularning rivojlantirish imkoniyatlari keng yoritilgan. Viloyatda tumanlar ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda, agrosanoat klasterlarini joylashtirish, ularni muammolari yechimi va istiqbollari bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar berilgan. **Kalit so'zlar:** agrosanoat klasterlari, paxta-to'qimachilik klasterlari, g'allachilik klasterlari, meva-sabzavotchilik klasterlari, chorvachilik klasterlari, parrandachilik klasterlari, dorivorchilik klasterlari.

АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АГРОПРОМЫШЛЕННЫХ КЛАСТЕРОВ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация

В данной статье на основе социологических исследований подробно освещены вопросы оценки и анализа видов деятельности агропромышленных кластеров в Самаркандской области, а также их возможности развития. Исходя из специализации районов области, предложены конкретные рекомендации по размещению агропромышленных кластеров, решению их проблем и определению перспектив развития.

Ключевые слова: агропромышленные кластеры, хлопко-текстильные кластеры, зерноводческие кластеры, плодовоовощные кластеры, животноводческие кластеры, птицеводческие кластеры и фармацевтические кластеры.

ANALYSIS OF AGRO-INDUSTRIAL CLUSTER ACTIVITIES IN THE SAMARKAND REGION THROUGH SOCIOLOGICAL RESEARCH

Annotation

This article comprehensively examines the possibilities for the development of agro-industrial clusters in the Samarkand region by evaluating and analyzing their types of activities through sociological research. Taking into account the specialization of districts within the region, specific proposals and recommendations are provided for the placement of agro-industrial clusters, as well as for addressing their problems and identifying future prospects.

Keywords: agro-industrial clusters, cotton-textile clusters, grain clusters, fruit and vegetable clusters, livestock clusters, poultry clusters, pharmaceutical (medicinal) clusters.

Kirish. O'zbekistonda klaster siyosatining o'ziga xos jihatlari o'rganish, agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy omillarini tahlil qilish, shu sohadagi muammolar va kelajakdagi imkoniyatlarni o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu haqda respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 20-noyabr kuni Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmushi farovonligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishida ham bevosita viloyat tumanlarida bu sohadagi klasterlar faoliyatini rivojlantirishga to'xtalib o'tgan edi [10]. Hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni baholashda turli metodlardan foydalanish va bu metodlarni o'zaro solishtirish, natijalarning qanchalik mos kelishini aniqlash, voqelikka haqqoniy baho berish imkonini yaratadi. Klasterlar doirasida o'tkaziladigan sotsiologik so'rovlarni esa, davom etayotgan o'zgarishlarni aniq va real baholash imkonini beruvchi metod sifatida qaraladi. Tadqiqot doirasida viloyatdagi agrosanoat klasterlari rivojining hozirgi holatini tahlil qilish maqsadida klasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan talab, klasterlar infratuzilmasining holati, klasterlarni rivojlantirishga to'stinlik qilayotgan muammolar, mavjud qonun va me'yoriy hujjatlarining samaradorlik ko'rsatkichi, mazkur korxonalarda aholi bandligi, klasterlar faoliyatini rivojlantirish uchun ilmiy hamkorlik ahamiyati, klasterlar va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi munosabat hamda agrosanoat klasterlarini rivojlantirishga qaratilgan takliflari ijtimoiy sotsiologik so'rovnoma o'tkazish orqali baholash muhim sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, asosiy yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlari xorijlik iqtisodchi olimlar M.Porter, S.Ketels, Ö.Sölvell, G.Lindqvist, E.Bergman, E.Ferser, C.Bojlar tomonidan, agrosanoat klasterlarining rivojlanishi esa L.Kiminami, A.Kiminami, S.Sharma, E.Nogales, F.Theus, R.Rama, M.Yu, L.Erling, R.Mueller, A.Jankoviaklar tomonidan tadqiq etilgan. Milliy iqtisodiyotda klasterlarni shakllantirishning nazariy-konseptual asoslari, xorijiy tajribalar, agrosanoat klasterlarining iqtisodiy ahamiyati kabi masalalar MDH mamlakatlari olimlaridan Y.Dorjiyeva, L.Markov, L.Shukina, Y.Limetti, V.Kundus, R.Xikmatov kabilarning ilmiy izlanishlarida qisman o'z aksini topgan [1, 9].

O'zbekistonlik iqtisodchi va geograf olimlardan R.Alimov, D.Kurbanova, A.Rasulov, M.Raxmatov, T.Jo'rayev, M.Kamilova, A.Alimov, A.Abduliyev, N.Xolmatov, R.Ro'ziyev, M.Xusainov, G.Zohidov, D.Mirzaxalilova, Ch.Murodov, N.Maxmasobirova, D.Begimova, S.Ergashev, Sh.Boboyev kabilarning mazkur yo'nalishda bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borgan [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur so'rovnomada muallif tomonidan Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan agrosanoat klasterlarining barcha turlari bo'yicha, klaster rahbarlaridan maxsus dastur asosida 2025-yilda o'tkazildi. Agrosanoat klasteri ishtirokchilari orasida o'tkazilgan ushbu so'rovnomada klaster faoliyat turlari bo'yicha paxta-to'qimachilik (12 ta), g'allachilik (11 ta), meva-sabzavotchilik (12 ta), chorvachilik (2 ta), parrandachilik (1 ta), baliqchilik (2 ta), dorivorchilik (1 ta) klasterlaridan jami 41 ta respondent ishtirok etdi [2].

Mazkur so'rovnomada tadqiqot mavzusiga tegishli bo'lgan 22 ta savoldan iborat bo'lib, jarayonda qatnashgan klasterlar qamrovi 100 foizlik natijani qayd etdi. Sotsiologik so'rovnomada dastlab "klasterning nomi, klasterning faoliyat turi, klasterning tashkil topgan vaqti, klaster joylashgan tuman, klaster tarkibidagi fermer xo'jaliklari soni, klasterda ishlovchi ishchi xodimlar soni" degan umumiy savol berildi. Bu esa klasterlarning joylashgan o'rni, nomi, klasterning tumanlardagi faoliyat yo'nalishlari, ulardagi fermer xo'jaliklari soni va band aholining aniq yechimlarini berdi [2].

Samarqand viloyatidagi 41 ta agrosanoat klasterlarining faoliyat turlari bo'yicha quyidagicha yo'nalishlarda olib borilishini respondentlar belgilab o'tgan. (1-jadval).

1-jadval.

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan agrosanoat klasterlari (2025-y) [1]


Agroklasterlar	Soni	Biriktirilgan maydoni, ming ga	Shundan Klasterda, ming ga	Fermer xo'jaligidagi	
				Soni	Maydoni, ming ga
Paxta-to'qimachilik klasterlari	12	83232	12638	2231	70694
G'allachilik klasterlari	11	86027,5	5915	4112	80112,5
Meva-sabzavotchilik klasterlari	12	21360	2527,7	2455	18832,6
Chorvachilik klasterlari	2	767	767		
Parrandachilik klasterlari	1	3,5	3,5		
Baliqchilik klasterlari	2	32	32		
Dorivorchilik	1	57	57		
Jami	41	191479	21940,2	8798	169639,1

*Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari va so'rovnomada natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagilardan ma'lumki, paxta to'qimachilik va meva-sabzavotchilik klasterlari viloyatda eng ko'p ulushga ega (har biri 29.3%). Bu sohalar viloyatning an'anaviy iqtisodiy tarmoqlari bo'lib, ularning rivojlanishi mahalliy iqtisodiyotga katta hissa qo'shadi [4]. G'allachilik ham muhim o'rinda turadi (26.8%). Bu soha oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va don mahsulotlarini qayta ishlash, hamda aholi iste'moli uchun sifatli un mahsulotlarini ishlab chiqarishda ahamiyatli rol o'ynaydi [5].

Quyidagi diagrammada "Siz klasteringiz samarali faoliyati va xodimlarning malakasini oshirish uchun qaysi xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanishni ma'qul deb hisoblaysiz?" degan savolda 33 ta (80,5%) ovoz Xitoy tajribasiga berilgan (1-rasm). Xitoyning agrosanoat sohasidagi innovatsiyalari, arzon va samarali texnologiyalari hamda mehnat unumdorligi yuqoriligi bu tanlovni asoslaydi. Xitoy zamonaviy qishloq xo'jaligi uskunalari ishlab chiqishda yetakchi davlatlardan biri bo'lib, bu Xitoyning klasterlar faoliyatida va xodimlarning malakasini oshirishda eng mashhur tajriba manbai ekanligini ko'rsatadi [7].


Ikkinchi o'rinda Yevropa davlatlari tajribasi turibdi 30 ta (73,2%). Yevropa mamlakatlari ekologik toza texnologiyalar, yuqori unumdorlikka ega agrar tizimlar va ilg'or logistika tizimlari bilan mashhur [3].



1-rasm. Agrosanoat klasterlaridagi yangi texnologiyalarni joriy etishdagi muammolarni baholash

Ayniqsa, Germaniya, Niderlandiya, Fransiya va Italiya kabi davlatlar qishloq xo'jaligi sohasida ilg'or tajribaga ega [8]. Boshqa davlatlar – 26 ta (63,4%). Respondentlarning ko'pchiligi boshqa davlatlar tajribasidan ham foydalanish zarurligini ta'kidlagan. Bu javob klasterlarning o'ziga xos sharoitlariga moslashgan yechimlarni qidirayotganini ko'rsatadi. Rossiya – 10 ta (24,4%) tajribasiga nisbatan kamroq qiziqish bildirilgan. Rossiya qishloq xo'jaligi texnikasi va oziq-ovqat sanoatida rivojlangan bo'lsada, so'rov ishtirokchilari uni ustuvor yo'nalish deb hisoblamagan bo'lishi mumkin. Koreya – 6 ta (14,6%) zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lishligi bilan birga, klasterlar uchun unchalik dolzarb emasligi ko'rinmoqda. Koreya agrar sektori nisbatan kichik bo'lib, u asosan yuqori texnologik yechimlarga yo'naltirilgan. Turkiya – 4 ta (9,8%) qishloq xo'jaligi an'anaviy va zamonaviy usullarni uyg'unlashtirgan davlatlardan biri hisoblansa ham, u Samarqand viloyatidagi agrosanoat klasterlari uchun yetakchi tajriba manbai sifatida qaralmagan. Yaponiya – 3 ta (7,3%) ilg'or texnologiyalarga ega bo'lsada, qishloq xo'jaligi maydoni cheklanganligi va yuqori texnologiyali dehqonchilik tizimi keng miqyosda moslashish uchun qimmatga tushishi mumkin.

Xitoy va Yevropa davlatlari eng ko'p ovoz to'plagan. Bu Samarqand viloyati agrosanoat klasterlari tejamkor, yuqori unumdorlikka ega texnologiyalar hamda innovatsion qishloq xo'jaligi yechimlariga e'tibor qaratayotganini ko'rsatadi. Boshqa davlatlar bandining yuqori bo'lishi shuni anglatadiki, klasterlar o'ziga mos bo'lgan turli davlatlarning tajribasini o'zlashtirish tarafdori. Rossiya, Koreya, Turkiya va Yaponiya tajribasiga qiziqish ancha past, bu esa ularning Samarqand viloyatidagi klasterlari ehtiyojlariga to'liq mos kelmasligi mumkinligini bildiradi.




2-rasm. Klasterlar va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi o'zoro hamkorlikni baholash

Ushbu so'rovnomadagi savol natijalari Samarqand viloyatidagi klasterlar va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi hamkorlikning hozirgi holatini baholashga qaratilgan (2-rasm).

Ko'pchilik hamkorlikdan mamnun – 58,5% respondentlar klasterlar va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi munosabatlarni ijobiy baholagan. Bu esa klaster tizimining samaradorlik darajasi yaxshi ekanini va umumiy muammolar kamligini ko'rsatadi.

Javob berishda qiynalganlar ham ko'p (31,7%), fermerlar va klasterlar o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lmagan qatlam borligini yoki hamkorlikning har doim ham aniq natijalar beravermasligini ko'rsatishi mumkin. Salbiy fikr bildirganlar (9,8%) juda ozchilikni tashkil qiladi – Bu shuni anglatadiki, mavjud tizimda muammolar bo'lsa ham, ularni asosiy to'siq deb hisoblovchilar kam. Samarqand viloyatida klasterlar va fermerlar o'rtasidagi hamkorlik umuman olganda yaxshi baholanmoqda. Lekin, hamkorlikni yaxshilash uchun axborot tarqatish, shaffoflik va fermerlar bilan aloqalarni mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish foydali bo'lishi mumkin.

Tahlil va natijalar. So'rovnomaning bu savoliga barcha respondentlar qatnashgan bo'lib, ularga klasterlarni rivojlantirish uchun eng foydali deb hisoblangan takliflarni tanlash imkoniyati berilgan (3-rasm).



3-rasm. Klasterlarni rivojlantirish uchun berilgan takliflar natijalari tahlili

Natijalar quyidagicha: eksportbop va qayta ishlash talablari asosida mahsulot yetishtirish va "yashil yo'lak" yaratish – 34 ovoz (82,9%). Bu taklif eng ko'p ovoz to'plagan. Bu shuni anglatadiki, respondentlar klaster mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga katta ehtiyoj borligini ta'kidlamoqda.

Ichki va tashqi bozor talablarini hisobga olib ekinlarni joylashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish – 29 ovoz (70,7%). Klaster faoliyatini bozordagi talablar bilan moslashtirish muhim ekani ko'rinib turibdi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ham dolzarb masala hisoblanadi. Klasterlarda mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash korxonalarini ko'paytirish – 26 ovoz (63,4%). Mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash muammosi dolzarb bo'lib, bu klasterlarning samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida ko'rilmogda. Suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish va qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish – 25 ovoz (61%). Suv resurslaridan samarali foydalanish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish katta ahamiyat kasb etadi.

Yerlarni auktsion orqali sotib olishda klasterlar uchun imtiyozlar berish – 25 ovoz (61%). Respondentlarning yarmi yer ajratish jarayonida imtiyozlar berish muhimligini ta'kidlagan. Korxonalarining imkoniyatini oshirish uchun davlat tomonidan moliyaviy ko'mak berish – 16 ovoz (39%). Moliyaviy yordam va xalqaro standartlarni joriy etish muhim bo'lsa ham, boshqa masalalarga nisbatan biroz kamroq e'tibor berilgan. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha olim va mutaxassislarni jalb etish – 11 ovoz (26,8%). So'rov ishtirokchilarining oz qismi bu taklifni qo'llab-quvvatlagan. Bu esa innovatsion texnologiyalarni joriy etish hozircha asosiy muammolardan biri emasligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo'lsak eng ustuvor yo'nalishlar eksport va qayta ishlash (82,9%), ichki va tashqi bozor talablariga moslashish (70,7%), mahsulotlarni saqlash va qayta ishlashni rivojlantirish (63,4%) deb qaralgan. Suv tejoyvchi texnologiyalar va yer ajratish masalalari ham muhim deb topilgan (61%). Ushbu natijalar Samarqand viloyatidagi agrosanoat klasterlarining asosiy ehtiyojlarini ko'rsatadi va qaysi yo'nalishlarga ko'proq e'tibor berish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Samarqand viloyatida agrosanoat klasterlarini rivojlantirish borasida olib borilgan sotsiologik so'rovnomana natijalari shuni ko'rsatadiki, klasterlarning hozirgi holati umuman olganda ijobiy baholanmoqda. Ko'pchilik respondentlar klasterlar faoliyati barqaror rivojlanib borayotganini, ishlab chiqarilgan mahsulotlarga talab yuqori ekanini va kelajakda sezilarli o'sish bo'lishini ta'kidlagan.

Viloyatidagi agrosanoat klasterlari qishloq xo'jaligida samarali tizim sifatida shakllanib bormogda. Kelajakda klasterlarning raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

- ❖ Infratuzilmani yaxshilash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
- ❖ Ilmiy tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish;
- ❖ Moliyaviy imtiyozlarni kengaytirish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini soddalashtirish;
- ❖ Eksport imkoniyatlarini kengaytirish va mahsulotlarni qayta ishlashni rivojlantirish;

❖ Klaster va fermerlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash.

Umuman olganda, viloyatdagi agrosanoat klasterlari kelajakda mintaqaning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. To'g'ri strategiyalar amalga oshirilsa, bu tizim yanada samarali ishlashi va qishloq xo'jaligining innovatsion yo'nalishda rivojlanishiga xizmat qiladi.

Respondentlar klasterlar istiqbolini ijobiy baholagan va hozirgi siyosatni to'g'ri yo'nalishda deb hisoblamoqda. Umuman olganda, Samarqand viloyatidagi agrosanoat klasterlarining kelajagi istiqbolli deb baholanmoqda. Kelajakda sezilarli o'sishga erishish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, bozor talablarini inobatga olish va infratuzilmani rivojlantirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Boboyev Sh.X. Samarqand viloyatida agrosanoat klasterlarini hududiy joylashuvi va ixtisoslashuvi. Fan va jamiyat. Ilmiy-uslubiy jurnal. Seriya: Tabiiy va texnika fanlari. Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar. Filologiya fanlari. 2024-yil №4/1-son. 34 b. <https://journal.ndpi.uz/en/issues/2024-4-1/download>
2. Boboyev Sh.X. Samarqand viloyatida agrosanoat klasterlarining rivojlantirishning geografik asoslari. Diss. avtoreferati. – Samarqand: 2025. 11-18 b. <https://www.samdu.uz/upload/content-files/Sh.Boboyev-avtoreferat.pdf>
3. Boboyev, S., & Berdiqulov, F. (2025). Livestock cluster in samarkand region development opportunities. Collection of scientific papers «SCIENTIA», 2025. Reykjavik, 84-87.
4. Boboyev, S. (2025). Increasing employment through organization of agroindustry clusters in Samarkand region. Collection of scientific papers «SCIENTIA», 2025. Singapore, 150-157.
5. VVL, A. P., Suhail, M., Lutfullo, I., & Shodiyor, B. (2024). A Comparative Study of Three Supervised Algorithms for Mixed Crop Classification. In E3S Web of Conferences (Vol. 590, p. 01004). EDP Sciences.
6. Ibragimov, L., Sherxolov, O., Musayev, B., Boboyev, S., Sobirova, M., & Boratova, G. (2024). Industrial development and assessment of its impact in Samarkand region-a GIS mapping-based study. In E3S Web of Conferences (Vol. 590, p. 06002). EDP Sciences.
7. Lutfullo, I., & Shodiyor, B. (2023). Samarqand viloyatida agrosanoat klaster faoliyatini rivojlantirishning geografik imkoniyatlari. Fan va ta'lim integratsiyasi. 1 (1), 82-92.
8. Lutfullo Ibragimov. Shodiyor Boboyev. Study of agro-industry clusters in foreign studies. Nat Sci 2023; 21(9):13-18. doi:10.7537/marsnsj210923.02.
9. Maxmasobirova N.U. Milliy iqtisodiyotni klaster modellari asosida rivojlantirishning jahon tajribasi (agrosanoat majmui misolida). Diss. avtoreferati. – Toshkent: 2023. 17-b.
10. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/21/samarkand/>